O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
SAMARQAND FILIALI

# “JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI” MODULI

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘qituvchi: Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich**

# MAVZU: INTERNET VA UNING AHAMIYATI

## REJA:

1. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar
2. Milliy axborot qidiruv tizimi. Davlat axborot resurslari va interaktiv xizmatlar
3. On-line tizimlar. Konvertorlar
4. Axborot xavfsizligi

**Internet** bu yagona standart asosida faoliyat ko‘rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog‘idir.

**Internet**

- **international network – xalqaro tarmoq**
- **interconnected networks – o‘zaro bog‘langan tarmoqlar**



**WWW (World Wide Web)** – butunjahon o‘rgimchak to‘ri deb nomlanuvchi tarmoq. WWW – bu internetga ulangan turli kompyuterlarda joylashgan o‘zaro bog‘langan hujjatlarga murojaat qilishni ta‘minlab beruvchi tizimdir. Aynan mana shu xizmat internetdan foydalanishni soddalashtirdi va ommaviylashtirdi.



# IP-manzil va Domen

Internet tarmog‘iga ulangan har bir kompyuter o‘z manziliga ega bo‘ladi. Bunday manzillar **IP-manzil** deyiladi. **IP(Internet protocol)** manzil bu to‘rt qismdan iborat raqamlar ketma ketligi. Masalan:

**192.168.54.125**

IP-manzillar dinamik va statik turlarga bo‘linadi.

Bunday raqamlar ketma-ketligini insonlar tomonidan eslab qolish qiyin bo‘lganligi sababli 1984 yilda **Domen nomlar tizimi(DNS-Domain name system)** kiritilgan. Har bir IP-manzilga qandaydir domen mos keladi. Masalan:

**www.sportedu.uz – 213.230.090.172**

Birinchi darajali domenlar ikkiga bo‘linadi: davlat nomi va tashkilot turini ko‘rsatadigan domenlar.

| Davlat nomi | | Tashkilot turi | |
|---|---|---|---|
| **uz** | O‘zbekiston | **com** | Tijorat tashkilotlari |
| **ru** | Rossiya | **gov** | Davlat organlari |
| **us** | AQSH | **mil** | Harbiy tashkilotlar |
| **uk** | Buyuk Britaniya | **edu** | Ta’lim muassasalari |
| **jp** | Yaponiya | **net** | Tarmoq tashkilotlari |
| **ch** | Xitoy | **info** | Axborot saytlari |

**Internet provayder** – internet tarmog‘i xizmatlarini taqdim etuvchi tashkilotdir.

UZONLINE

TURON TELECOM

Sarkor Telecom

TPS

ISTV

comnet

Internetda ishlash va undagi ma’lumotlar ustida turli amallar bajarish uchun maxsus dasturiy ta’minot zarur. Bunday dasturiy ta’minotlar **brauzerlar** deyiladi.

| Internet explorer | Mozilla firefox | Google chrome | Opera |
| --- | --- | --- | --- |

**Elektron pochta** maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida internet tarmog‘i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy ma’lumotni tezda (bir necha soniya va daqiqalarda) jo‘natish va qabul qilib olish mumkin.

# Elektron pochta manzili

info@minsport.uz



**OneID nima?**

Yagona identifikatsiya tizimi (YAIT) OneID foydalanuvchilar uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tijorat tashkilotlarining turli veb-saytlari va portallaridan qulay foydalanish uchun mo‘ljallangan.

OneID veb-saytlarga bir qator xizmatlarni taqdim etish uchun foydalanuvchilarni aniqlash imkonini beradi. Buning uchun foydalanuvchilar o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini YAIT OneID-da, jumladan login, parol, to‘liq ism, JSHSHIR va hokazolarni oldindan ro‘yxatdan o‘tkazishlari kerak.


Ko'zi ojizlar uchun talqin
Ўзб • O'zb • Рус • Eng
ONE ID
Foydalanuvchilik kelishuvi
Yordam
Loyiha haqida
Yagona identifikatsiya tizimi
Bitta qayd yozuvi orqali elektron hukumatning barcha tizimlariga kirish uchun ruxsat olish
Savollar tug'ilganda
iduzsupport@egov.uz
1242
8429056
Foydalanuvchilar soni 5:00
Kirish
Login
Mobile-ID
ERI
ID-karta
Login
Parol
Kirish
Login yoki parol yodingizdan chiqdimi?
Ro'yxatdan o'tish
Ro'yxatdan o'tish uchun sizga pasport ma'lumotlari kerak bo'ladi.
Men foydalanuvchi shartnomasi bilan tanishib chiqdim
Ro'yxatdan o'tish
ONE ID




**gov.uz** – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

**my.gov.uz** – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

**lex.uz** – Qonun hujjatlari milliy bazasi

**minsport.uz** – Yoshlar siyosati va sport vazirligi sayti

**uzedu.uz** – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti

**sportedu.uz** – Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti sayti


O'ZBEKCHA | ЎЗБЕКЧА | ҚАРАҚАЛПАҚША | РУССКИЙ | ENGLISH
09:59:48 (GMT+5) 19.04.2023
Izlash uchun matnni kiriting...
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUKUMAT PORTALI
O'ZBEKISTON HUKUMAT DAVLAT ORGANLARI HUJJATLAR YANGILIKLAR DAVLAT DASTURLARI
VOQEALAR
27 Aprel
TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM
April 27-28 2023 | Tashkent City Congress Hall
8 kun qoldi
II-Toshkent xalqaro investitsiya forumi
17 May
"Tashkent Law Spring" xalqaro yuridik forumi
28 kun qoldi
DOLZARB
O'zbekiston Prezidenti Yevroittifoq institutlari bilan insoniy o'lchov sohasida
ASOSIY YANGILIKLAR
Konferensiyada xalqaro tashkilotlar vakillari ma'ruza qilmoqda
Jamiyat | 19.04.2023
Suv xo'jaligi va farmatsevtika sanoatidagi loyihalar ko'rib chiqildi
Jamiyat | 19.04.2023
Energetika vaziri va Xitoy kompaniyasi vakillari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi
Iqtisodiyot | 19.04.2023
O'zbekiston Prezidenti Yevroittifoq institutlari bilan insoniy o'lchov sohasida yaqindan hamkorlik qilish muhimligini ...
Siyosat | 19.04.2023


my.gov.uz
Call-center
1242
my.gov.uz umumiy savollar (24/7)
1148
taklif va shikoyatlar
Ariza holatini tekshirish
O'Z
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga xush kelibsiz!
Суб
Kirish
Ro'yxatdan o'tish
Siz kutgan qulaylik!
Notarial xizmatlar tarixi bilan tanishing!
Sohalar
Ommabop xizmatlar
Yordam va ko'mak
19
Fuqarolik
3
Oila va bolalar
27
Ta'lim
8
Yoshlar
29
Ijtimoiy himoya
40
Ma'lumotnomalar
19
Adliya
7
Madaniyat va sport
26
UJKX
27
Ko'chmas mulk
21
Transport
20
Iqtisodiyot va biznes

**Google tarjimon** (inglizcha: *google translate*) - google kompaniyasining matn yoki veb-sahifalarni bir necha tilga tarjima qilish uchun mo‘ljallangan veb-xizmati. Hozirda google tarjimon 108 ta tilni qo‘llaydi. 2014-yil dekabr oyida google tarjimonga o‘zbek tili ham qo‘shildi.

**https://translate.google.com**



**Yandex tarjimon** - so'zlar va iboralarni, fotosuratlar va rasmlardagi matnlarni, saytlar va mobil ilovalarni avtomatik tarjima qilish xizmati. Tarjimon an'anaviy (Xitoy, ispan, nemis) va g'ayrioddiy tillar (ELF, esperanto, emoji) bilan ishlaydi. Xizmat arsenalida 90 dan ortiq til mavjud.

**https://translate.yandex.ru**



# Axborot xavfsizligi

**Axborot xavfsizligi** deb, ma’lumotlarni yo‘qotish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan tabiiy yoki sun’iy xossali tasodifiy va qasddan ta’sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi.

**Axborotning himoyasi** deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta’minlovchi va tashkilot axborot zahiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta’minlovchi qatiy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi.

# Axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari

**Login** - Shaxsning o‘zini axborot-kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo‘llaniladigan belgilar ketma-ketligi

**Parol** - Uning egasi haqiqiyligini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi

**Avtorizatsiya** - Foydalanuvchining resurslardan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni

**Kompyuter virusi** – O‘z-o‘zidan ko‘payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqatiluvchi hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar yetkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!